

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**RASULOVA ISTODA ABDULATIFOVNA**

**O‘ZBEK TILI LEKSIK-SEMANTIK TIZIMINING KONTRASTIV  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации  
по филологическим наукам**

**Content of the abstract of Doctoral (DSc) dissertation  
on philological sciences**

**Rasulova Istoda Abdulatifovna**

О‘zbek tili leksik-semantik tizimining kontrastiv tadqiqi..... 3

**Расулова Истода Абдулатифовна**

Контрастивное исследование лексико-семантической системы узбекского языка. .... 34

**Rasulova Istoda Abdulatifovna**

A Contrastive Study of the Lexical-Semantic System of the Uzbek Language ..... 72

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 76

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**RASULOVA ISTODA ABDULATIFOVNA**

**O‘ZBEK TILI LEKSIK-SEMANTIK TIZIMINING KONTRASTIV  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida B2024.2.DSc/Fil823 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.neu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Eltazarov Jo‘liboy Danabayevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Bobokalonov Ramazon Rajabovich**  
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Maxmaraimova Shohista To‘xtashevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Baxranova Dilrabo Keldiyorovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2-ARM binosi, 3-qavat Faollar zali. Tel.: (8366) 239-18-92; faks: (0366) 99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (XX-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**J.D. Eltazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**D.D. Marupova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**X.Z. Xayrullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida turli tillarning leksik-semantik tizimiga xalqlarning milliy-madaniy tafakkuri, borliqni idrok etish va lisoniy ifodalashdagi umumiy hamda o'ziga xos jihatlarni aniqlashning muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy kontrastiv lingvistikada leksik birliklarning semantik tuzilishini qiyoslash, tillararo muvofiqlik va farqlanish qonuniyatlarini belgilash ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq turli tillarning leksik-semantik sathlarini yagona nazariy-mezonlar asosida qiyoslash, semantik modellarning milliy xususiyatlarini izchil tavsiflash hamda ularning tillararo va madaniyatlararo aloqalardagi o'rnini belgilash masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois turli tillarga xos lug'aviy birliklardagi umumiylik va milliy o'ziga xosliklarni aniqlash hamda qiyosiy tavsifning mukammal nazariy asoslarini ishlab chiqish bugungi tilshunoslikda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida turli tillarga xos o'xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda lug'aviy birliklarning ma'no tuzilishi, milliy-madaniy mazmuni va nutqiy qo'llanish xususiyatlarini aniqlash tarjima nazariyasini rivojlantirish, chet tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirish, ikki va ko'p tilli lug'atlar yaratish hamda madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda korpus lingvistikasi, semantik modellashtirish va kompyuter lingvistikasi usullari asosida til birliklarining ma'no tuzilishini qiyosiy o'rganish, ularning muqobillik va nomuqobillik xususiyatlarini belgilash hamda kontrastiv tadqiqotlarning nazariy asoslarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda o'zbek tilini qo'shni va xorijiy tillar bilan qiyosiy o'rganish, ular o'rtasidagi lug'aviy-ma'noviy munosabatlarni aniqlash hamda milliy-madaniy mazmunning lisoniy ifodasini yoritish borasida salmoqli natijalarga erishilmoqda. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"<sup>1</sup>. Shu sababli o'zbek tiliga xos lug'aviy birliklarning ma'noviy va milliy-madaniy xususiyatlarini boshqa tillar bilan qiyoslash, ularni zamonaviy tadqiq usullari asosida tizimli tavsiflash dolzarb ilmiy muammolar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини tubdan ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Kontrastiv tahlil, leksik-semantik maydonlarni qiyosiy o'rganish, semantik modellashtirish, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlari bo'yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida tadqiqotlar amalga oshirilgan, jumladan: California University, Indiana University, Wisconsin University (AQSh), Cambridge University, Oxford University (Buyuk Britaniya), Barcelona University, Granada University (Ispaniya), Berlin-Brandenburgische Akademie der Wissenschaften AV, Humboldt Universität, Berlin Universität, Goethe Universität (Germaniya), Vrije Universiteit Amsterdam. (Niderlandiya), Sorbonne University (Fransiya), Dublin City University. (Irlandiya), İstanbul Üniversitesi, Orta Doğu Teknik Üniversitesi, Hacettepe Üniversitesi, Bilkent Üniversitesi., Yıldız Teknik Üniversitesi (Turkiya), Shanxay xalqaro tadqiqotlar universiteti (Xitoy), M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Voronej universiteti (Rossiya), Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi (Ozarbayjon), O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Farg'ona davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston).

Kontrastiv lingvistika, leksik-semantik maydonlarni qiyosiy o'rganish, semantik modellashtirish, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik

---

<sup>2</sup> <https://www.uc.edu/>, <https://www.iu.edu/index.html>, <https://www.wisc.edu/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.ox.ac.uk/>, <https://web.ub.edu/en/>, <https://www.ugr.es/>, <https://www.hu-berlin.de/en>, <https://www.fu-berlin.de/en/index.html>, <https://www.uni-frankfurt.de/en>, <https://www.uva.nl/en>, <https://www.sorbonne-universite.fr/>, <https://www.dcu.ie/>, [https://www.istanbul.edu.tr/tr/\\_](https://www.istanbul.edu.tr/tr/_), [https://www.metu.edu.tr/tr/\\_](https://www.metu.edu.tr/tr/_), <https://www.hacettepe.edu.tr/>, <https://www.web.ub.edu/>, <https://www.metu.edu.tr/>, <https://w3.bilkent.edu.tr/bilkent/>, <https://yildiz.edu.tr/>, <https://vu.nl/>, <https://www.univ-spn.fr/>, <https://www.wisc.edu/>, <https://www.ras.ru/>, <https://en.shisu.edu.cn/>, <https://msu.ru/en/>, <https://english.spbu.ru/>, <https://linguanet.ru/en/>, <https://www.vsu.ru/>, <https://science.gov.az/en>

bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: turli tizimli tillardagi leksik birliklarning semantik tuzilishi, ma'no munosabatlari, universal va milliy xususiyatlari aniqlanib, tillararo ekvivalentlik hamda semantik interferensiya belgilash mezonlari takomillashtirilgan (University of California, Indiana University, University of Wisconsin, AQSh; University of Cambridge, University of Oxford, Buyuk Britaniya); ingliz, ispan va boshqa Yevropa tillaridagi leksik bo'shliqlar, polisemiya, semantik o'zgarishlar, terminologik ekvivalentlik hamda leksik ma'noni kognitiv va freym asosida modellashtirish tamoyillari ishlab chiqilgan (University of Barcelona, University of Granada, Ispaniya; Vrije Universiteit Amsterdam, Niderlandiya; Sorbonne Université, Fransiya; Dublin City University, Irlandiya); tillararo leksik reprezentatsiya, ko'p tillilik sharoitidagi semantik o'zgarishlar, semantika va pragmatika munosabati, shuningdek, kontrastiv lingvistika, tarjimashunoslik va mashina tarjimasini integratsiyalash masalalari ochib berilgan (Humboldt-Universität zu Berlin, Freie Universität Berlin, Goethe-Universität Frankfurt am Main, Germaniya); turk va ingliz tillari materialida leksik-semantik, grammatik hamda lingvomadaniy o'xshashlik va farqlar aniqlanib, tarjima ekvivalentligi, lisoniy interferensiya va chet tilini o'qitishda kontrastiv tahlildan foydalanish imkoniyatlari asoslangan (İstanbul Üniversitesi, Orta Doğu Teknik Üniversitesi, Hacettepe Üniversitesi, Bilkent Üniversitesi, Yıldız Teknik Üniversitesi, Turkiya); rus, slavyan va turkiy tillardagi leksik-semantik maydonlar qiyoslanib, ularning tarkibiy tuzilishi, milliy-madaniy mazmuni va tarjimada ifodalanish xususiyatlari ochib berilgan (Shanghai International Studies University, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Voronej davlat universiteti, Rossiya; Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi, Ozarbayjon); o'zbek tilini qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar bilan qiyoslash asosida leksik-semantik o'xshashlik va farqlar, tarjima jarayonidagi semantik siljishlar, milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi hamda parallel korpuslardan foydalanish masalalari ochib berilgan (O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Farg'ona davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston).

Dunyoda kontrastiv lingvistika doirasida, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: genetik va tipologik jihatdan qarindosh hamda qarindosh bo'lmagan tillarning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik va pragmatik sathlarini qiyosiy o'rganish; turli tillardagi leksik-semantik maydonlar, konseptlar va semantik modellarning universal hamda milliy xususiyatlarini aniqlash; tillararo ekvivalentlik, ekvivalentsizlik, lakuna, interferensiya va transfer hodisalarining yuzaga kelish mexanizmlarini ochib berish; lisoniy birliklarning kognitiv, lingvomadaniy va kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini kontrastiv jihatdan tadqiq etish; parallel korpuslar, kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tillararo o'xshashlik va farqlarni avtomatik aniqlash usullarini ishlab chiqish; tarjimashunoslik doirasida muqobillik va tarjima transformatsiyalari masalalarini

o'rganish; kontrastiv leksikografiyaning nazariy-amaliy asoslarini takomillashtirish hamda ikki va ko'p tilli elektron lug'atlar yaratish; kontrastiv tahlil natijalarini chet tillarni o'qitish metodikasiga tatbiq etish.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** XX asrning 80-90-yillaridan boshlab kontrastiv grammatika masalalarini o'rganish boshlangan bo'lsa-da, XXI asr boshlariga kelib ushbu muammoni kontrastiv tahlil, kognitiv semantika va lingvomadaniy tadqiqotlar yo'nalishida yoritib berishga qiziqish yanada kuchaydi. Kontrastiv lingvistikaning shakllanishi muayyan ilmiy maktablarning faoliyati bilan bog'liq hamda ushbu maktablar vakillari tomonidan tadqiqotlar yaratilgan. Xususan, R.Lado, Sh.Balli, E.Koseriu, K.James, V.Skalichka, R.J.Di Petro, Ch.A.Ferguson, G.Nikkel kabi olimlar til tizimlarining qiyosiy tadqiqi<sup>3</sup>, interferensiya, ekvivalentlik, semantik transfer jarayonlariga oid nazariy asoslarni ishlab chiqdilar. Kontrastiv lingvistikaning nazariy poydevori L.V.Shcherba, A.V.Fedorov, V.N.Yartseva, V.G.Gak, U.Vaynrayx kabi zabardast tilshunoslarning konseptual qarashlari negizida shakllandi<sup>4</sup>.

Hozirgi davrda mazkur yo'nalishning rivojlanishiga I.A.Sternin, V.B.Kashkin, A.L.Zeleneskiy, Z.G.Gergiyeva, L.K.Bayramova, S.Murillo, I.Rojas-Lizana kabi olimlar sezilarli hissa qo'shdilar<sup>5</sup>. Ularning izlanishlarida lingvokognitiv modellash, lingvomadaniy konseptlar, semantik kategoriya va leksik birliklarning milliy xususiyatlarini tahlil qilish bo'yicha yirik ilmiy natijalar taqdim etilgan.

O'zbek tilshunosligida kontrastiv tadqiqotlarning ildizlari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridan boshlanadi. Unda XI asr turkiy xalqlarning til xususiyatlari ziddiyatli belgilari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida XV asr turkiy va forsiy tillarini tizimli tarzda chog'ishtiradi. XX asrning II yarmida J.Bo'ronov, O.Yusupov,

---

<sup>3</sup> Lado R. Linguistics across cultures: applied linguistics for language teachers. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. – 141 p.; Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 416 с.; Косериу Э. Контрастивная лингвистика и перевод: их соотношение // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XXV. – М.: Прогресс, 1989. – С.63-81.; Джеймс К. Контрастивный анализ // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XXV. – М.: Прогресс, 1989. – С. 205-306.; Скаличка В. Типология и сопоставительная лингвистика // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XXV. – М.: Прогресс, 1989. – С. 27-31.; Ди Пьетро Р.Дж. Языковые структуры в контрасте // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XXV. – М.: Прогресс, 1989. – С. 82-121.; Никкель Г. Контрастивная лингвистика и обучение иностранному языку // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XXV. – М.: Прогресс, 1989. – С. 350-366.

<sup>4</sup> Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. – М.: Л., 1947. – 96 с.; Федорова А. В. и др. Немецко-русские языковые параллели. – М., 1961, –146 с.; Ярцева В.Н. Контрастивная грамматика. – М.: Наука, 1981. – 111 с.; Гак В.Г. О контрастивной лингвистике // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXV. Контрастивная лингвистика. – М., 1989. – С.5-17.; Weinreich, U. Languages in Contact: Findings and Problems. New York: Linguistic Circle of New York, 1953. – 148 p.

<sup>5</sup> Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 208 с.; Кашкин В.Б. Введение в теорию коммуникации: Учеб. пособие. Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2000. – 175 с.; Зеленецкий, А. Л. Сравнительная типология немецкого и русского языков / А. Л. Зеленецкий, А. Д. Монахов. – М., 1995.; Гергиева З.Г. О статусе контрастивной лингвистики // Лингвистика. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2009, № 6 (2), С. 203-206.; Байрамова Л.К. Введение в контрастивную лингвистику. Изд-во Воронежского университета, 1987. – 90 с.; Murillo Ornat, S. A Relevance Assessment of Reformulation Markers. // Journal of Pragmatics. 2004. Vol. 36. No. 11. P. 2059-2068.; Rojas-Lizana, I. "A very big thank you to...": Letters of Gratitude in Local Newspapers from Australia and Chile. // Languages in Contrast. 2015. Vol. 15(2). P. 251-279.



M.Umarxo‘jayev, G‘.Hoshimov, T.Bushuy kabi olimlar tipologiya va chog‘ishtirma tilshunoslik nazariyasini ilmiy jihatdan rivojlantirdilar<sup>6</sup>. Y.D.Polivanov, O.Azizov, M.E.Mamatov, M.T.Zokirov, P.P.Nishonov, K.O.Saparova, J.Sh.Jumaboyeva, S.Zokirova, D.Jumanovalarning tadqiqotlarida o‘zbek va chet tillarining umumiy va farqli jihatlari, semantik strukturalari, paradigmatic hamda sintagmatik xususiyatlari haqida qimmatli ilmiy ma’lumotlar bayon etilgan<sup>7</sup>. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlanmalarda kontrastiv lingvistikaning alohida yo‘nalish sifatida monografik darajada tizimli tadqiq deyarli yo‘qligi, leksik-semantik birliklarning milliy-madaniy komponentlari; lakuna, konnotativ qatlam va metaforik modellar darajasidagi tahlillarning yetarli darajada yoritilmaganligi kuzatiladi. Aynan ushbu jihatlar mazkur dissertatsiyaning ilmiy yangilik va dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek tili leksik-semantik tizimiga xos milliy-madaniy va semantik xususiyatlarni rus va ingliz tillaridagi muqobil birliklar fonida kontrastiv tahlil qilish, o‘xshash jihatlarni qiyoslash asosi sifatida belgilagan holda farqli semantik komponentlarni ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek va xorijiy tillar o‘rtasidagi leksik, semantik o‘xshashlik va farqlarni kontrastiv-semantik tahlil asosida tizimli ravishda o‘rganish hamda chog‘ishtirilayotgan tillardagi milliy-madaniy leksika (realiya, frazeologik lakunalar, madaniy konnotatsiya) va chet tillardagi ekvivalentlar o‘rtasidagi farqlarni lingvokulturologik va kognitiv nuqtayi nazardan ochib berish;

leksik birliklarning milliy o‘ziga xosligini sema darajasida tahlil qilish, so‘z ma’nosining milliy-semantik komponentlarini aniqlash;

leksik lakuna va ekvivalenti bo‘lmagan birliklarning o‘ziga xos tipologiyasini ishlab chiqish; konnotativ o‘ziga xoslik tushunchasini o‘zbek tilshunosligi semantik tizimidagi o‘rnini belgilash;

---

<sup>6</sup> Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – 246 б.; Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 1987. С. 20-130.; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974. – 114 б.; Умархўжаев М.Э. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. – Андижан: АДТПИ, 2010. – 150 б.; Хашимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Т.: Фан, 1991. – 107 с.;

<sup>7</sup> Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент: Фан, 2007. – 182 с.; Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология. – Ташкент: Ўқитувчи, 1983; Маматов М.Ш. Предикативные атрибуты в немецком и узбекском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Л., 1976. – 22 с.; Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанл. номз. диссертацияси. – Тошкент, 2009. – 152 б.; Сапарова К.О. Сопоставительно-типологическое исследование фоностилистики русского и узбекского языков: Дисс. докт. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 397 с.; Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 82 б.; Джуманова Д.Р. Сўзнинг тил алоқа жараёнидаги фонологик модели: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 88 б.

o'zbek, rus, ingliz tillari materiallarida kontrastiv yondashuvning universal va milliy-semantik qirralarini ilmiy jihatdan asoslab berish;

tadqiqot natijalari asosida "kontrastiv semalar tahlili" modeli ishlab chiqilib, bu leksik birliklarning stilistik, semantik hamda emotsional jihatlarining milliy o'ziga xosligini taqdim etish; kontrastiv semalar lug'atini tuzish uchun metodik asos ishlab chiqish; bu yondashuv asosida o'zbek leksikografiyasida yangi amaliy yo'nalish sifatida takliflar tayyorlash;

o'zbek tilidagi leksik birliklarning rus va ingliz tillaridagi muqobillarini aniqlash, o'xshash semantik belgilarni qiyoslash asosi sifatida belgilash hamda ular o'rtasidagi milliy-madaniy, semantik va konnotativ farqlarni kontrastiv-semantik, kognitiv va lingvomadaniy jihatdan ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'zbek, rus, ingliz tillarining leksik-semantik tizimida mavjud bo'lgan leksik birliklar, ularning semantik tarkibi, paradigmatic va sintagmatik munosabatlari hamda milliy-madaniy komponentlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o'zbek va chet tillaridagi lug'aviy birliklarning ma'no tarkibi, semantik tuzilishi va semalar tizimi, konnotativ hamda milliy-madaniy xususiyatlari, semantik lakunalari, ekvivalentlik darajalari, shuningdek, ularning tillararo munosabati va nutqdagi funksional voqelanishi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-chog'ishtirma, kontrastiv, semantik-kognitiv, differensial-semantik va komponent tahlil, lingvomadaniy hamda leksikografik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'zbek va chet tillaridagi leksik birliklarning denotativ, konnotativ, assotsiativ va aksiologik ma'no qatlamlaridan tashkil topgan ko'p bosqichli semantik tarkibi qiyosiy, komponent, kognitiv-semantik va lingvomadaniy tahlil asosida ochib berilib, ularning integral va differensial semalari, tillararo ekvivalentlik darajalari, semantik lakunalari hamda universal va milliy-madaniy belgilari aniqlangan;

tanlangan tillar leksik tizimidagi semantik maydonlarning chegarasi, markaziy va periferik qatlamlari, integral va differensial semalari hamda paradigmatic munosabatlari belgilanib, o'zbek va chet tillari leksik-semantik tizimlarini qiyoslashda ma'no hajmi, semik muvofiqlik, konnotativ belgi va qo'llanish doirasiga asoslangan mezonlar hamda komponent, maydon, kontekstual va kontrastiv tahlil usullarini integrativ qo'llash tartibi ishlab chiqilgan;

har bir tilga xos artefakt, mentefakt va naturfaktlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarkibidagi denotativ, konnotativ va milliy-madaniy semalar farqlanib, ulardagi universal xususiyatlarning mushtarak semalar, milliy xususiyatlarning esa konnotativ ma'nolar, madaniy belgilar hamda milliy kodlar orqali voqelanish qonuniyatlari asoslangan;

o'zbek va chet tillaridagi leksik birliklar semantik muvofiqlik darajasiga ko'ra to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz guruhlarga tasniflanib, "soxta do'stlar"ning (*false friends*) shakliy o'xshashligi bilan ma'no tarkibi va qo'llanish doirasi o'rtasidagi nomuvofiqlik turlari hamda ularni farqlash mezonlari aniqlangan;

o‘zbek va chet tillarining leksik-semantik tizimlaridagi universal (umuminsoniy), areal (hududiy) va milliy xususiyatlar o‘zaro farqlanib, universallikning umumiy konseptual-semantik asos, areallikning hududiy til aloqalari, milliy xoslikning esa madaniy-tarixiy, tipologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi madaniy yuklamali leksika, realiyalar, lakunalar hamda denotativ, konnotativ va funksional semalarning kontrastiv tahlili orqali dalillangan.

kontrastiv tahlil natijalari asosida leksik-semantik tipologiyada qiyoslash birligini tanlash, semantik maydon chegaralarini belgilash, ekvivalentlik darajalarini ajratish hamda universal, areal va milliy xususiyatlarning o‘zaro munosabatini izohlash mezonlari aniqlashtirilib, o‘zbek, rus va ingliz tillari o‘rtasidagi leksik-semantik farqlarni ta’limda semantik interferensiyaning oldini olish, tarjimada kontekstual muqobilni tanlash va qiyosiy leksikografiyada denotativ, konnotativ hamda milliy-madaniy axborotni lug‘at maqolalarida aks ettirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ayrim leksemalarning namunaviy kontrastiv sema modellari ishlab chiqilgan hamda leksik birliklarning milliy o‘ziga xosligini aniqlashning samarali usuli sifatida “kontrastiv semalar tahlili” modeli yaratilgan;

sema tahliliga asoslangan kontrastiv lug‘at tuzish tamoyillari ishlab chiqilgan, ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz birliklar aniqlanib, tarjimada uchraydigan noaniqliklarni kamaytirishga xizmat qiladigan mexanizmlar belgilangan;

o‘zbek va chet tillarini o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan, unda tillararo interferensiyaning tipik ko‘rinish hamda o‘ziga xos grammatik va leksik xatolari tizimli ravishda ko‘rsatib berilgan;

kontrastiv yondashuvni ikki tilli o‘quv lug‘atlarini tuzishda qo‘llashning ilmiy asoslari ishlab chiqilib, lug‘atshunoslik amaliyotini takomillashtirish imkoniyatlari asoslangan;

kontrastiv tahlilni zamonaviy lingvistik metodlar (korpus lingvistikasi, semantik modellashtirish, lingvokognitiv tahlil) bilan integratsiyalash bo‘yicha stilistik, semantik hamda emotsional jihatlariga ilmiy yondashuv taklif etilgan va uning ilmiy hamda o‘quv-uslubiy nashrlarni yaratishda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatilgan;

milliy-madaniy komponentlarning tilda ifodalanish qonuniyatlari ilmiy asoslangan hamda leksik nominatsiya tizimidagi semantik lakunalar va madaniy kodlar aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning zidlash, differensial-semantik, komponent tahlil metodlari vositasida o‘rganilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, jahon tilshunosligining zamonaviy ilmiy konsepsiyalariga mosligi bilan belgilash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek, rus va ingliz tillari materiallari asosida leksik-semantik tizimlarning kongruentlik hodisasi tizimli ravishda yoritilgani, shu orqali umumiy tilshunoslik, lingvistik tipologiya, kontrastiv va kontakt lingvistika, universalizatsiya lingvistikasi hamda semasiologiyaning nazariy qoidalari boyitilgani; turli tillardagi leksik birliklarning semantik muvofiqligi, ekvivalentlik darajalari, universal va milliy xususiyatlarini izohlashga doir yangi ilmiy yondashuvlar taklif etilgani; leksik-semantik tizimlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar, semantik yaqinlashuv va uzoqlashuv hamda tillararo interferensiya yuzasidan amalga oshirilgan tahlillar asosida kontrastiv tadqiqot metodologiyasi rivojlantirilib, tillararo qiyoslash tamoyillari aniqlashtirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning material va xulosalaridan kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, semantika, leksikologiya va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida ilmiy hamda o‘quv adabiyotlarini yaratishda, shuningdek o‘zbek va chet tillarini o‘qitish jarayoni hamda ikki tilli va o‘quv lug‘atlarini tuzishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tillarning leksik-semantik tizimini kontrastiv asosda tadqiq etish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar asosida:

o‘zbek va chet tillaridagi leksik birliklarning denotativ, konnotativ, assotsiativ va aksiologik ma’no qatlamlaridan tashkil topgan ko‘p bosqichli semantik tarkibi qiyosiy, komponent, kognitiv-semantik va lingvomadaniy tahlil asosida ochib berilib, ularning integral va differensial semalari, tillararo ekvivalentlik darajalari, semantik lakunalari hamda universal va milliy-madaniy belgilari aniqlangan o‘rinlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2024-yillarda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilgan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli innovatsion loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-noyabrdagi 04/1-5495-son ma’lumotnomasi). Natijada mashina tarjimasini va avtomatik matnni qayta ishlash jarayonlarida semantik adekvatlikni ta’minlashga oid ilmiy-uslubiy tavsiyalar takomillashtirilgan hamda loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy ishlanmalar mazmuni daliliy asoslar bilan boyitilgan;

har bir tilga xos artefakt, mentefakt va naturfaktlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarkibidagi denotativ, konnotativ va milliy-madaniy semalar farqlanib, ulardagi universal xususiyatlarning mushtarak semalar, milliy xususiyatlarning esa konnotativ ma’nolar, madaniy belgilar hamda milliy kodlar orqali voqelanish qonuniyatlari asoslangan o‘rinlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172-raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-noyabrdagi 04/1-5496-son ma’lumotnomasi). Natijada korpus materiallarini semantik

belgilash va tavsiflash jarayonining ilmiy-metodik asoslarini yanada takomillashtirishga erishilgan;

o‘zbek va chet tillaridagi leksik birliklar semantik muvofiqlik darajasiga ko‘ra to‘liq ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz guruhlariga tasniflanib, “soxta do‘stlar”ning (*false friends*) shakliy o‘xshashligi bilan ma’no tarkibi va qo‘llanish doirasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik turlari hamda ularni farqlash mezonlari haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan PF-PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-noyabrdagi 04/1-5497-son ma’lumotnomasi). Natijada elektron platforma materiallarini tillararo semantik muvofiqlik asosida shakllantirish hamda ko‘p tilli tarjima sifatini ta’minlashning nazariy-mezoniy tamoyillari aniqlashtirilgan;

o‘zbek va chet tillarining leksik-semantik tizimlaridagi universal (umuminsoniy), areal (hududiy) va milliy xususiyatlar o‘zaro farqlanib, universallikning umumiy konseptual-semantik asos, areallikning hududiy til aloqalari, milliy xoslikning esa madaniy-tarixiy, tipologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi madaniy yuklamali leksika, realiyalar, lakunalar hamda denotativ, konnotativ va funksional semalarning kontrastiv tahliliga doir ilmiy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021–2023-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq og‘zaki nasri (janrlar tuzilishi, genezesi, obrazlar tizimi, sujet va motivlari, poetikasi)” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2025-yil 24-oktabrdagi 812/1-son ma’lumotnomasi). Natijada og‘zaki nasr matnlarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilishda kontrastiv yondashuvning nazariy-mezoniy asoslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan;

kontrastiv lingvistika doirasida tillarning leksik-semantik tizimidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash, ekvivalentlik hamda leksik lakunalarni belgilashga doir ilmiy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasviri” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 24-dekabrdagi 815/1-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy va og‘zaki matnlarning leksik-semantik xususiyatlarini kontrastiv tahlil qilishning ilmiy-uslubiy tamoyillari aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 30 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 21 ta maqola (15 tasi respublika hamda 6 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matn hajmi 264 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bo‘yicha mamlakatda olib borilgan tadqiqotlarning sharhi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatitsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kontrastiv lingvistikaning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan bo‘lib, u uch paragrafdan iborat. Mazkur bobda kontrastiv lingvistikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab lingvodidaktika, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangani tahlil qilindi.

Mazkur bobning *“Kontrastiv tilshunoslik taraqqiyoti: qiyosiy-tarixiy qarashlardan zamonaviy yondashuvlargacha”* deb nomlangan birinchi paragrafida kontrastiv lingvistikaning nazariy asoslari, shakllanish tarixi va zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni yoritilgan. Xususan, kontrastiv lingvistikaning mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanish jarayoni yoritildi. R.Lado, Sh.Balli, E.Koseriu, V.N.Yartseva va boshqa olimlarning kontrastiv tilshunoslikka oid qarashlari tahlil qilinadi.

G.F.Lutfullina tadqiqotlariga ko‘ra, tillarni qiyosiy o‘rganish jarayoni uch asosiy bosqichda rivojlangan: birinchi bosqich qadimgi davrlardan XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi<sup>8</sup>. Ushbu davr qiyosiy tilshunoslikning nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, asosan taqlidiy grammatikalarning ustunligi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda I.A.Boduen de Kurtene, N.A.Bogorodiskiy, F.F.Fortunatov, A.A.Potebnya, A.Meye kabi olimlarning qarindosh bo‘lmagan tillarni qiyoslash mumkinligi va uning samaradorligi haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich XX asrning 20-50-yillarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda tillarni qiyosiy o‘rganish ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi: nazariy maqsadlarda tillarni qiyosiy tahlil qilish va lingvodidaktik maqsadlarda tillarni qiyosiy o‘rganish. Ushbu bosqichda tillarni qiyoslash metodikasiga oid muhim ilmiy

---

<sup>8</sup> Лутфуллина Г.Ф. Введение в сопоставительную лингвистику. Английский и родной языки: учебное пособие / Г.Ф. Лутфуллина. – Казань: Казан. гос. энерг. ун-т, 2017. – С.4.

g'oyalar ilgari surildi. Birinchi yo'nalishga V.Matezius, ikkinchi yo'nalishga esa Y.D.Polivanov asos soldi.

Qiyosiy tilshunoslik taraqqiyotining uchinchi bosqichi XX asrning 50-yillaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu bosqichda chog'ishtirma tilshunoslikka bo'lgan qiziqish kuchaydi, tillarni qiyoslashda tizimlilik tamoyilining ahamiyati anglab yetildi, maydon yondashuvi asosida yangi nazariyalar shakllandi. Shuningdek, "Kontrastiv grammatika", "Lingvokulturologiya" kabi fundamental asarlarning chop etilishi kontrastiv tilshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Mazkur bosqichda tillarni qiyoslash nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, qiyoslanayotgan tillarning har birini chuqurroq o'rganish, alohida o'rganishda e'tibordan chetda qolishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy tadqiqotlar natijalari tipologiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, lug'atchilik uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kontrastiv tadqiqotlarning maqsadi ikki yoki undan ortiq tildagi til birliklarining ma'nosi va vazifalaridagi milliy o'ziga xos farqlarni hamda o'xshashliklarni tilning barcha sathlarida aniqlashdir. Bu tilni o'rganish, tarjima va madaniyatlararo muloqotni takomillashtirish uchun muhimdir. Qiyoslashning boshqa turlaridan farqli o'laroq, chog'ishtirma tadqiqotlar har bir tilning o'ziga xosligini tushunish va uni amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan farqlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratadi<sup>9</sup>. Anglashiladiki, kontrastiv tadqiqotlarning asosiy maqsadlari tahlilga tortilgan tillardagi milliy o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, har bir tilga xos bo'lgan so'zlarning ma'nosi, grammatik tuzilishi va boshqa til hodisalaridagi o'ziga xos jihatlarni topishga qaratiladi. Shuningdek, o'rganilayotgan tillardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash barobarida til tizimlarini chuqurroq tushunish va tahlil qilishga yordam beruvchi umumiy jihatlar ham aniqlanadi.

Ushbu tadqiqotda kontrastiv tahlilning asosiy maqsadi tillardagi o'xshashliklarni emas, balki, avvalo, ularning semantik va funksional farqlarini aniqlashdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Leksik birliklar semantikasidagi milliy o'ziga xoslik ko'pincha to'liq tarjima ekvivalentining mavjud emasligi orqali namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi.

Turkologiya va o'zbek tilshunosligida tillarni qiyosiy hamda kontrastiv jihatdan o'rganish an'analarning shakllanishi, tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari izchil tahlil qilinadi. Mazkur paragrafda kontrastiv yondashuvning Markaziy Osiyo ilmiy tafakkurida juda qadimiy ekanligi, bu jarayon XI asrda Mahmud Koshg'ariy va Mahmud Zamaxshariy asarlaridan boshlanganligi qayd etiladi. Ayniqsa, "Devonu lug'otit turk" va "Muqaddimat ul-adab" kabi manbalar turkiy tillarning leksik, grammatik va semantik xususiyatlarini boshqa tillar bilan chog'ishtirib o'rganishda dastlabki fundamental asarlar sifatida baholandi. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari esa o'rta asrlardagi kontrastiv lingvistikaning mumtoz namunasi sifatida ko'rsatilib, unda turkiy va fors

---

<sup>9</sup> Qarang: Алпатов В.М., Крылов С.А. История лингвистических учений. 5-е изд., пер. и доп. Учебник и практикум для академического бакалавриата – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 452 с.

tillarining fonetik, morfologik, leksik va stilistik jihatdan chogʻishtirilgani, oʻzbek tilining imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgani qayd etiladi.

Bundan tashqari, XX asr va XXI asr boshlarida oʻzbek tilshunosligida kontrastiv lingvistika sohasida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, turkiy tillarning oʻzaro va rus hamda Yevropa tillari bilan qiyosiy oʻrganilishi, interferensiya, chet tillarni oʻqitish metodikasi va tarjima masalalari bilan bogʻliq ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Y.D.Polivanovdan boshlab zamonaviy oʻzbek tilshunoslarigacha boʻlgan ilmiy meros umumlashtirilib, kontrastiv tadqiqotlarning nazariy ahamiyati bilan bir qatorda, ularning amaliy qiymati – taʼlim, tarjima, darslik va oʻquv qoʻllanmalarini yaratishdagi oʻrni yoritiladi. Mazkur paragrafda turkologiya va oʻzbek tilshunosligida kontrastiv lingvistika mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanganligi, uning tadqiqot obyekti va metodologiyasi izchil rivojlanib borayotganligi, shuningdek, bu yoʻnalish kelgusida ham tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida xulosa chiqariladi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Kontrastiv lingvistik tadqiqotlarning nazariy va amaliy asoslari*” deb nomlangan boʻlib, bu paragrafda kontrastiv tahlilda koʻpincha quyidagi toʻrt jihat eʼtiborga olinadi: *tavsiflash* (taqqoslash uchun tanlangan tillarning unsuri yoki xususiyati ushbu maqsad uchun tanlangan lingvistik modelga muvofiq har tomonlama tavsiflanadi va tahlil qilinadi); *taqqoslash uchun material tanlash* (ikkita tilning qaysi jihatlari taqqoslanishi toʻgʻrisida qaror qabul qilinadi, chunki bitta tadqiqotda bularning barchasini bir vaqtning oʻzida taqqoslash mumkin emas); *taqqoslash* (kontrastiv tahlil jarayonining oʻzi sodir boʻladi, bunda taqqoslanayotgan til tizimlaridagi farqlar va oʻxshashliklarni aniqlash amalga oshiriladi); *bashorat qilish* (oʻrganilayotgan tilning qaysi sohalarida muammolar yuzaga kelishi mumkinligi tushuntiriladi).

Shu bilan birga, kontrastiv lingvistika doirasida tillarni taqqoslash muammosiga uch xil yondashuv asosida eʼtibor qaratiladi: semantik, grammatik va ekvivalentlik asosidagi yondashuvlar. Masalan, grammatik formalar, maʼnolar yoki sintaktik tuzilmalarning oʻziga xosliklari chuqur oʻrganiladi. Kontrastiv tilshunoslikning oʻrganish obyekti, asosan, ikki yoki undan ortiq tillar yoki til tizimlari oʻrtasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilishdir<sup>10</sup>. U turli tillarning fonetik, grammatik, leksik va semantik xususiyatlaridagi farqlarini qiyoslab oʻrganishga asoslanadi, bu tilning qaysi jihatlari boshqa tilni tarjima qilish yoki oʻrganishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkinligini tushunishdir<sup>11</sup>.

Qiyosiy-tarixiy, tipologik, areal, universalialar va kontakt lingvistikasi kabi yoʻnalishlar kontrastiv lingvistikadan oʻz maqsadlari, vazifalari va tadqiqot materiallari jihatdan sezilarli darajada farq qilishi, ularda, asosan, nazariy tadqiqotlar ustunligi alohida taʼkidlangan. Kontrastiv lingvistika oʻziga yaqin sohalar orasida alohida oʻrin tutadi, chunki u til hodisalarini tahlil qilishda oʻziga xos usullar va aniq mazmunga ega. Kontrastiv lingvistika tillarni, asosan, sinxron

<sup>10</sup> Ярцева В. Н. Контрастивная лингвистика / В. Н. Ярцева // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 239.

<sup>11</sup> Зеленецкий А. Л. Контрастивная лингвистика и типология // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2010. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontrastivnaya-lingvistika-i-tipologiya> (29.10.2024).



planda o'rganadi. Qiyoslanayotgan tillarning genetik bog'liqligi prinsipial ahamiyatga ega emas, kontrastiv usul har qanday tillarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Odatda, kontrastiv tadqiqotlarda tillardan biri ona tili, ikkinchisi chet tili sifatida ishtirok etadi.

“Kontrastiv va qiyosiy-tarixiy lingvistika: umumiy va farqli taraflar” deb nomlangan uchinchi paragrafda kontrastiv va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik orasidagi farqlarga to'xtab o'tiladi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik an'anaviy ravishda tillarni genetik aloqadorlik nuqtayi nazaridan o'rganadi. Uning asosiy maqsadi – tillar o'rtasidagi o'xshashliklarni aniqlash va ular orqali tarixiy rivojlanish jarayonini tiklash, ya'ni “barcha farqlar bobo til kelib chiqish asosini aniqlashga qaratiladi”<sup>12</sup>. Bunda tillarning shakliy o'xshashliklari, xususan, tovush va grammatik tuzilmalar o'rganilib, ularning o'zaro aloqadorligi aniqlanadi. Masalan, V.A.Vinogradovning ta'kidlashicha, qiyosiy-tarixiy metod tillarning “o'zaro mos jihatlarini” aniqlashga, “chog'ishtirma” metod esa “o'zaro farqli jihatlarini” aniqlashga qaratilgan<sup>13</sup>. Kontrastiv lingvistika esa tillarni sinxronik nuqtayi nazardan o'rganadi. Uning asosiy maqsadi tillar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, ayniqsa, lingvistik interferensiya, tarjima va chet tillarini o'qitish kabi amaliy sohalarda qo'llaniladigan farqlarni aniqlashdir<sup>14</sup>. Kontrastiv lingvistika nafaqat tillarning farqlariga, balki shakl va mazmun o'rtasidagi munosabatlarga ham e'tibor qaratadi<sup>15</sup>. Bunda bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini boshqa bir til fonida o'rganish orqali tillarning farqlari yaqqol ko'rsatiladi.

Kontrastiv lingvistikada “o'xshashliklar” orqali “farqlar” aniqlanadi, ya'ni o'xshashliklar “umumiy” bo'lib, farqlar esa “xususiy” ma'noda qo'llaniladi. Kontrastiv lingvistika “umumiylik”dan “xususiylik”ka borib, tilni chuqurroq anglashga yordam beradi. Charlz Friz ta'kidlaganidek, kontrastiv tahlil farqlar orqali o'xshashliklarga ham e'tibor qaratadi. Ya'ni farqlar qaysi joyda va qanday o'xshashliklardan kelib chiqayotganini ko'rsatadi<sup>16</sup>.

Dissertatsiyaning “**Kontrastiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari va terminologik apparati**” deb nomlangan ikkinchi bobida kontrastiv lingvistikaga oid terminlarning tarixiy-etimologik, tavsifiy, semantik kabi jihatlarini tahlili bayon etilgan. Kontrastiv tilshunoslik qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fanining terminlaridan hamda uning tabiiy va gumanitar fanlardan qabul qilgan tushuncha va atamalaridan foydalanadi. Binobarin, u *interferensiya*, *transferensiya*, *ekvivalentlik*, *kontrastiv juftlik*, *ekvivalentsiz birlik*, *lakuna*, *tillarning tipologik o'xshashligi/farqi*, *idiomatizatsiya*, *kontrastiv grammatika*, *fonetik/fonologik tahlil*, *morfologik tahlil*, *sintaktik tahlil*, *leksik tahlil*, *pragmatik tahlil*, *assotsiativ guruh* kabi maxsus terminlar, shu bilan birga chog'ishtiriluvchi tillar mansub bo'lgan

<sup>12</sup> Греймас А.-Ж. Структурная семантика: Поиски метода / пер. с фр. Л. Зиминной. – М., 2004. – С. 25.

<sup>13</sup> Виноградов В. А. Сопоставительный метод // Языкознание. Большой энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. 2-е изд. – М., 1998. – С. 481.

<sup>14</sup> Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. – М. – АСТ: Восток-Запад, 2007. – С. 23.

<sup>15</sup> Малых. Л. М. К проблеме статуса контрастивной лингвистики. Вестник Вятского государственного университета, 2(2), 2009. – С. 45.

<sup>16</sup> Fries C. C. Teaching and Learning English as a Foreign Language. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1945. – P.153.

tilshunoslikda amalda bo'lgan yana boshqa o'nlarча terminlardan, tadqiqotchilarning u yoki bu lisoniy hodisa uchun qo'llaydigan yakka tartibdagi atamalardan ham foydalanishi mumkin.

Ikkinchi bobning “*Kontrastiv leksikologiya va uning asosiy xususiyatlari*” deb nomlangan birinchi paragrafida kontrastiv leksikologiya bir tilning boshqa tilga nisbatan leksik va frazeologik o'xshashlik va farqlarini tahlilga tortuvchi, o'zining o'rganish obyektiga ega bo'lgan kontrastiv tilshunoslikning alohida va mustaqil bo'limi sifatida shakllanganiga urg'u beriladi hamda uning asosiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Kontrastiv leksikologiya kontrastiv tilshunoslik doirasida rivojlanayotgan amaliy yo'nalishdir. Mazkur fan paradigmasi bir tilda mavjud birliklarning ma'nosini ikkinchi tilda mavjud birliklar bilan taqqoslaydi hamda ularda mavjud o'xshashliklar va, ayniqsa, farqli struktur, semantik, funksional xususiyatlarni aniqlaydi<sup>17</sup>. Kontrastiv leksikani tavsiflashda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlardan biri – bu bir tilda mavjud birliklarning qiyoslanayotgan tilda nechta va qanday leksik birlik bilan ifodalanishidir.

Chog'ishtirilayotgan tillardagi leksik va frazeologik moslik turlari sifatida quyidagi hollarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) chiziqli moslikda chog'ishtirilayotgan tillardagi leksik birliklar o'rtasidagi ma'noviy ekvivalentlik mutlaqo teng va ular ayni semantik chiziqda joylashgan so'zlardir (nisbat 1:1): masalan, ruscha “*зород*” – o'zbekcha “*shahar*”;

b) vektorli moslikda chog'ishtirilayotgan A tilning mavjud leksik birligi B tilning bir necha birligiga mos keladi (nisbat 1:N)<sup>18</sup>; masalan, ruscha “*профессия*” – o'zbekcha “*kasb-kor*”, “*kasb*”, “*mashg'ulot*”;

c) lakunalar – bu ikki madaniyat to'qnash kelganda va ulardan birida ikkinchisidagiga ko'ra to'liq ekvivalentga ega bo'lmagan tushuncha yoki hodisa mavjud bo'lganida o'rta chiqadigan madaniy “bo'shliqlar”dir. Lingvistikadagi lakuna – bu boshqa til yoki madaniyatda mavjud bo'lgan tushuncha uchun so'z yoki iboraning chog'ishtirilayotgan tilda yo'qligi. Bir tilning lug'aviy tizimidagi ana shunday “nomuvofiqliklar” yoki “bo'shliqlar” boshqa til bilan qiyoslanganda namoyon bo'ladi (nisbat 1:0)<sup>19</sup>. Masalan, o'zbekcha *talbon*, *challari*, *xudoyi*, *do'ppi*, *sumalak*... kabi o'zbekcha lug'aviy birliklar rus tilida mavjud emas, bu so'zlar tarjima qilinganda ularning izohi berib o'tiladi.

d) leksik birliklarning tuzilishi va shaklidagi nomuvofiqliklar chog'ishtirilayotgan tillardagi leksik birliklarning strukturaviy farqlari ularning morfemik, sintaktik tuzilishi yoki aloqalari bilan bog'liq (masalan, so'z bir leksik birlik sifatida, turg'un so'z birikmasi, qo'shma so'z, juft so'z ...), shakliy farqlar esa fonetik tuzilishi, talaffuzi va imlosi bilan belgilanadi. Turli tillarda leksik birliklar bir tilda so'z shaklida, boshqa tilda esa frazeologik birikma shaklida

<sup>17</sup> Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С. 23.

<sup>18</sup> Гетманцев С.М. Национальная специфика лексической сочетаемости прилагательных, обозначающих пространственные измерения (на материале русского и английского языков). Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 2. – С.88-90.

<sup>19</sup> Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Воронеж, 1999. – С.12.

ifodalanishi mumkin. Masalan, ba'zi birliklarning boshqa tilda to'g'ridan to'g'ri mos birligi bo'lmaydi, jumladan, ruscha "*dacha*" va o'zbek tilida "*dala hovli yoki shahar tashqarisidagi uy (hovli)*" deb ikki yoki undan ortiq so'z bilan ifodalanadi.

Ushbu bobning "*Kontrastiv semasiologiya kontrastiv leksikologiyaning bir qismi sifatida*" nomli ikkinchi paragrafida kontrastiv tadqiqotlarning semasiologiya bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Ma'lumki, leksikologiya tilshunoslikning so'z va uning ma'nolarini o'rganuvchi bo'limi bo'lib, semasiologiya leksikologiyadan o'sib chiqqan, til birliklarini ma'no jihatdan o'rganadi. Unda so'zning shakl va ma'nosi izohlanadi. Semasiologiya tilning barcha ma'no anglatuvchi birliklarini tahlil qiladi<sup>20</sup>. Semema – bu leksemaning ma'no tomoni bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismlari tilshunoslikda sema atamasi bilan yuritiladi. Semema tarkibidagi integral sema va differensial sema alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular ma'noning turli jihatlarini namoyon etadi. Integral sema leksik birliklarning umumiy ma'no xususiyatlarini aks ettirsa, differensial sema ularni bir-biridan farqlaydi. Sema semasiologiyasi deganda so'z ma'nosi tavsifini ifodalash vositasi sifatida sema – ya'ni ma'noning minimal komponenti tushunchasini izchil qo'llovchi semasiologiya tushuniladi<sup>21</sup>.

Leksik yoki frazeologik birliklarni tahlilga tortishda ularning denotativ va konnotativ ma'nolarini asoslash zarur. Akademik V.V.Vinogradov ta'limotiga muvofiq, leksik birliklar ikki denotativ va uch konnotativ sema bo'yicha ma'no tiplariga ajratiladi<sup>22</sup>. Denotativ ma'no aynan biron bir predmetni nomlash uchun yaratilgan so'z bo'lib, u birlamchi sema (D1) tarzida ishlatiladi, ya'ni so'zning bevosita nominativ ma'nosi hisoblanadi. Masalan, *o'pka* so'zi "odam va quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning ko'krak qafasi ichiga joylashgan bir juft, konus shaklidagi nafas olish a'zosi"<sup>23</sup>, *yuk* so'zi "bir yerdan ikkinchi yerga ko'tarib, tashib borilishi lozim bo'lgan og'irlik"<sup>24</sup> va hokazo.

Denotativ ikkilamchi sema (D2) so'zlarning hosila ma'nolari bo'lib, ushbu so'zning birlamchi nominativ ma'nosidan kelib chiqadi, ammo yangi kontekstda boshqa narsani nomlash uchun ishlatiladigan ma'nosidir. D2 hali ham denotativ xarakterga ega, lekin hosila-nominativ bo'lib, metaforaga yaqinlashadi, biroq emotsional emas. Masalan, *yuk* "diniy e'tiqodga ko'ra, aziz-avliyolarni ranjitish tufayli yuz beradigan kasallik". – *Agarda, – dedi ko'z yoshi qilib Xoljon xola, – azizlar yuki bossa, yo ajinalar chalib ketsa, gunohim sizning bo'yningizda. (G'ayraty, Dovdirash)*

*O'pka* "o'zini bosolmaydigan, hovliqma shaxslarga nisbatan, odatda, ularning ismiga qo'shib (tirkab) ishlatiladi. Masalan, – *Kerilmay o'!* – *dedi jahl bilan*

<sup>20</sup> Sharipova O., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2006. – 38 b.

<sup>21</sup> Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. М.– АСТ: Восток-Запад, 2007. – С. 42.

<sup>22</sup> Виноградов В. В. Основные типы лексических значений слова. Лексикология и лексикография: Избранные труды. – М., 1977. – С. 162-189.

<sup>23</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 420

<sup>24</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 268

*Yo'ldosh ketgan tomonga qarab. – Hali ham o'sha-o'sha! O'pka!* (O'.Usmonov, Girdob).

D1 sememasiga ko'ra ekvivalent bo'lgan sememalarning paradigmatic tizimidagi farqlar, mantiqan olib qaralganda, sintagmatik tizimdagi farqlarga, ya'ni leksemalarning o'zaro birikishida, ularning erkin, barqaror va frazeologik birikmalar tarkibida qo'llanishida farqlarga olib keladi. Bu farqlar birinchi navbatda D2 sememasining ifodalanishida namoyon bo'ladi. Buni ingliz va o'zbek tillarida o'lchamni ifodalovchi sifatlar misolida ko'rsatamiz. Masalan, "baland" sifatining D1 sememasiga ingliz tilidagi "high" sifati mos keladi. Shunga mos ravishda, "baland tog'" – "high hill", "baland daraxt" – "high tree" kabi birikmalar ekvivalent hisoblanadi. Ba'zi hollarda D2 sememasi ifodalanishida ham moslik mavjud: "baland parvoz" – "high flight", ammo bunday mosliklar juda kam uchraydi, aksincha, ko'plab nomutanosib kelish holatlari mavjud. Masalan, "osmondagi yulduz" – "high star"; high sea – ochiq dengiz; high shoulder-blades – o'tkir (qirralari chiqib turgan); kurak suyaklar; high Tory – ashaddiy Tory (konservator); high living – hashamatli (dabdabali) hayot; high noon – ayni peshin vaqti; high words – haqorat (g'azabli) so'zlar va boshqa shunga o'xshash hollarda "high" sifati o'zbek tilidagi "baland" so'zining ma'nosiga to'liq mos kelmaydi.

V.G. Gak rus va fransuz tillarining qiyosiy tahlili asosida obyektiv predmetli munosabatlarning semantik tabiatini ochib beradi. U nutqdagi predmet va harakat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, obyektiv predmetli munosabatlarning quyidagi uch asosiy turini farqlaydi: barqaror, nobarqaror va neytral predmetli munosabatlar.

1. Barqaror predmetli munosabatlar til tizimida ijtimoiy va madaniy jihatdan yuzaga kelgan, shubha tug'dirmaydigan holatlarni ifodalaydi. Masalan, "Он сел на стул" jumlasida obyekt hisoblanmish stulning "o'tirish" fe'li bilan semantik valentligi to'g'ri kelishi oldindan ma'lum bo'lgani sababli bu harakat kontekstdan anglashiladi va "o'tirmoq" fe'lining ishlatilishini boshqa lisoniy birlik yoki ifoda bilan tasvirlash ortiqcha bo'lib qoladi. Shu bois fransuz tilida bu mazmun "Il a pris une chaise" shaklida, ya'ni "U stulni oldi" degan tarzda, bevosita "o'tirmoq" fe'lisiz ifodalanadi.

2. Nobarqaror predmetli munosabatlar esa har doim ham barqaror bo'lmagan, ya'ni predmet har doim o'tirish uchun mo'ljallanmagan vaziyatlarda yuzaga keladi. Masalan, "Он сел на диван" holatida "диван" maxsus stul sifatida emas, ko'p funksiyali mebel bo'lgani uchun, tananing o'zgarish holati (o'tirmoq) aniq tasvirlanishi zarur bo'ladi. Bu fe'l fransuz tilida "Il s'est assis sur le divan" shaklida, ya'ni s'asseoir (o'tirmoq) fe'li yordamida ifodalanadi. Bunday holatda fe'lning to'liq semantik yuklamasi saqlanishi zarur va u talaffuzda tushib qolmaydi.

3. Neytral predmetli munosabatlar esa real harakatning tafsilotlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan ikkinchi darajali bo'lib, uning qanday amalga oshganidan ko'ra natijasi muhimroq sanaladi. Masalan, "Он сел на поезд" nutqiy ifodasi real voqelikda o'tirishni nazarda tutmasligi mumkin, balki transport vositasiga chiqish harakati haqida xabar beradi. Bu yerda "сесть" fe'li o'zining dastlabki

“o‘tirmoq” semasini yo‘qotadi va yangi kontekstual ma‘no kasb etadi. Shu sababli bu ibora fransuz tilida “*Il a pris le train*”, ingliz tilida esa “*He took the train*” tarzida ifodalanadi<sup>25</sup>.

Konnotativ motivlashmagan sema (K1) faqat frazeologik birikmada paydo bo‘ladigan, asosiy nominativ ma‘nosidan farqli, lekin obrazli – assotsiativ asosga ega ma‘nosidir. Bu holatda so‘z yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘z bilan birikkanida yangi, ko‘chma, konnotativ ma‘no kasb etadi. Birikuv leksema nominatsiya uchun emas, balki biron bir narsani D1 yoki D2 bilan qiyoslash orqali tavsiflanishi uchun qo‘llanilganligini ko‘rsatadi<sup>26</sup>. Masalan, “*dardini dasturxon qilmoq*” frazeologik birikmasida “*dardini yozish, aytish, to‘kish*” semasi ifodalangan.

Konnotativ motivlashmagan sema (K2) denotativ ma‘nolar bilan bevosita aloqa namoyon bo‘lmaydi. “*Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq*” iborasida nega aynan *tarvuz* leksemasi kelganligi maxsus izlanishlarni talab qiladi. Konnotativ ajratilgan sema (K3) faqat maxsus frazeologik birliklar tarkibida kelib, boshqa joyda ishlatilmaydi. Masalan, “*anqoning urug‘i*” frazeologik birikmasidagi anqo komponenti anqo tabiatda mavjud bo‘lmagan, afsonaviy qush bo‘lib\*, odatda, uning urug‘i deganda umuman uchramaydigan va topilmaydigan narsa nazarda tutiladi<sup>27</sup>.

“*Taqqoslanuvchi tillar masalasi*” nomli uchinchi paragrafda kontrastiv tahlilga tortilgan tillarni tanlash metodologiyasi masalalari tahlil etiladi. Kontrastiv tahlilning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan qaysi tillar bir-biri bilan taqqoslanayotganiga bog‘liq. Tillarni tanlash – bu faqat texnik yoki statistik qaror emas, balki chuqur nazariy va amaliy asosga ega bo‘lgan metodologik masaladir. I.A. Sternin ta’kidlashicha, “Kontrastiv tilshunoslik nafaqat universal hodisalarni aniqlashga, balki taqqoslash orqali har bir tilning o‘ziga xosliklarini ochishga intiladi. Shu bois kontrastiv lingvistikada til tanlash mezonlari quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

1. Genealogik yaqinlik omil qarindosh tillarni taqqoslash ko‘plab umumiyliklarni ochib berishda samarali natija beradi, chunki ular umumiy ildizdan kelib chiqqan va strukturaviy jihatdan yaqinligi ular orasidagi farq va umumiylikni ko‘rsatib beradi hamda til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi. V.G. Vilyuman va P.A. Sobolevalarning ta’kidlashicha, bunday tadqiqotlar turli tillardagi holatlarning yaqinlik yoki uzoqlik darajasini, o‘xshashligi yoki farqini o‘lchash imkonini beradigan universal metatilni yaratishga yordam berishi mumkin<sup>28</sup>.

<sup>25</sup> Гак В.Г. Сопоставительная лексикология (на материале французского и русского языков). – М.: Международные отношения, 1977. – С. 24

<sup>26</sup> Зокирова С. Контрастив лингвистиканинг назарий асослари. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2016. – Б. 55.

\**Anqo* – afsonaviy qush. Qadimgi Sharq xalqlari ertak va dostonlarida bosh qahramon qilib olingan. Anqo qushi insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydigan xususiyati borligi, patlari va qanotlari oltin, kumushdan deya ta’riflanadi. Qadimda xalqorasida u baxt qushi nomini ham olgan, ya’ni anqo – baxt, tole timsoli, kimga soyasi tushsa, o‘sha inson baxtli bo‘ladi degan qarashlar ham mavjud bo‘lgan. *Qarang*: Dehqonova D. O‘zbek tilidagi ayrim iboralar etimologiyasi. Central Asian Journal of Education and Innovation. Volume 3, Issue 3, March 2024. – P. 15-17.

<sup>27</sup> Зокирова С. Контрастив лингвистиканинг назарий асослари. – Тошкент: Fan texnologiya, 2016. – Б. 56.

<sup>28</sup> Виллюман В.Г., Соболева П.А. Деривация и исчисление в контрастивной лингвистике // Семантика и производство лингвистических единиц. – Пермь: Изд-во Пермского ун-та, 1979. – С. 3.

2. Areal omilga ko'ra, tillar bir geografik hududda uzoq vaqt yonma-yon rivojlangan bo'lsa, ular o'zaro ta'sirga kirgan bo'ladi. Bu holat areal tilshunoslik doirasida o'rganiladi. Masalan, o'zbek va rus, o'zbek va tojik tillari uzoq muddatli sotsiolingvistik aloqa sababli ko'plab fonetik, leksik va sintaktik o'zaro ta'sirga ega bo'lgan<sup>29</sup>.

3. Amaliy ehtiyoj va maqsadga muvofiqlik – ko'p hollarda tadqiqotchilar til o'rganish, tarjima, ikki tilli lug'at tuzish yoki didaktik material ishlab chiqish maqsadida tillarni tanlaydilar. Masalan, o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi kontrastiv tahlil ko'pincha ingliz tilini o'zbek tilida so'zlovchilarga o'rgatishda yuzaga keladigan interferensiyaning oldini olish maqsadiga xizmat qiladi<sup>30</sup>.

Kontrastiv tilshunoslikda esa tillarning qarindoshligi muhim emas. Ba'zi tilshunoslar kontrastiv metod nafaqat ikki tilni tahlil qilishda, balki bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini (masalan, so'zning sinonimik qatorini) taqqoslashda ham qo'llanilishi mumkin<sup>31</sup>, degan fikrni ham ilgari suradilar.

*“Tillararo mutanosiblik va farqlilik, ularning tafakkuriy va lisoniy asoslari”* deb nomlangan to'rtinchi paragrafda ikki yoki undan ortiq tillardagi lingvistik birliklarning shakl, mazmun yoki funksional jihatdan bir-biriga mos kelishi yoki ular orasidagi farqliliklar masalasi ko'rib chiqiladi.

Tillararo mutanosiblikni tahlil qilishda lingvistik birliklarning turli darajalarda o'zaro mos kelishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Har bir daraja o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning har birida mutanosiblik darajasi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, *fonetik mutanosiblik* ikki tildagi tovush tizimlari orasidagi o'xshashlikni anglatadi. Masalan, o'zbek va turk tillaridagi unli tovushlarning soni va artikulyatsion xususiyatlari o'xshash bo'lgani bois, ko'plab fonemalar o'zaro mutanosibdir: o'zbekcha [a], [o], [e] tovushlari turk tilida ham mavjud. Biroq ingliz tilidagi diftonglar yoki rus tilidagi tanglay undoshlari o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri ekvivalentga ega emas, bu esa fonetik lakunalarni yuzaga keltiradi. Binobarin, o'zbek va rus tillari o'rtasidagi fonetik farqlarda ham ko'zga tashlanadi: o'zbek tilida unli fonemalar pozitsion jihatdan ancha barqaror bo'lib, ularda rus tilidagidek akkomodativ siljishlar kam kuzatiladi. *Morfologik mutanosiblik* so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi affiksalar (tub so'z, qo'shimcha va h.k.), grammatik kategoriyalar darajasida kuzatiladi. Masalan, rus tilidagi kelishik kategoriyasi va o'zbek tilidagi kelishiklar o'xshashlikka ega, ammo bu kategoriyaning turli son,

<sup>29</sup> Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Тошкент: Фан, 1985. – 175 с.; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974.

<sup>30</sup> Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент: Фан, 2007. – 182 с.; Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология. – Ташкент: Ўқитувчи, 1983; Маматов М.Ш. Предикативные атрибуты в немецком и узбекском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Л., 1976. – 22 с.; Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанл. номз. диссертацияси. – Тошкент, 2009. – 152 б.; Сапарова К.О. Сопоставительно-типологическое исследование фоностилистики русского и узбекского языков. Дисс. докт. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 397 с.; Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 82 б.; Джуманова Д.Р. Сўзнинг тил алоқа жараёнидаги фонологик модели: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 88 б.

<sup>31</sup> Конопелько И.П. Сопоставительный анализ в исследовании и преподавании языка. – Воронеж: издательство ООО «РИТМ», 2019. – С.40. <https://www.vsu.ru/ru/university/structure/communicate/pdf/monographs/konopelko-sop-analys.pdf> (August, 2024).

jins yoki fe'l zamonlaridagi ifodalanish uslubi mutanosib bo'lmashligi mumkin. Mutanosib kategoriyalar mavjudligiga qaramasdan ularning tilda voqelanishi mutlaqo o'ziga xos usullar, vositalar orqali yuz beradi. *Sintaktik darajadagi mutanosiblik* gap qurilishi, so'z tartibi va grammatik bog'lanish vositalarining o'xshashligiga taalluqlidir<sup>32</sup>. Xususan, ingliz tili qat'iy SVO (subyekt–fe'l–obyekt) tartibiga ega bo'lsa, o'zbek tilida odatiy tartib SOV (subyekt–ob'yekt–fe'l) shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbekcha: “*Men kitob o'qiyman*”; inglizcha: “*I read a book*”. Bu esa ikki til orasida strukturaviy tafovut mavjud ekanligini ko'rsatadi. Rus tilida esa so'z tartibi erkin bo'lib, mantiqiy urg'u va kontekstga qarab o'zgaradi. Masalan, “*Книгу читает мама*” yoki “*Мама читает книгу*”. *Semantik mutanosiblik* so'z va iboralarining ma'nolarining o'zaro mos yoki qisman mos kelishini anglatadi. Masalan, “*ona*” (o'zbek), “*mother*” (ingliz), “*мать*” (rus) kabi so'zlar bazaviy ma'no bo'yicha mutanosib hisoblanadi. Biroq madaniy konnotatsiyalar, idiomatik ifodalar yoki ko'chma ma'nodagi birliklarda to'liq mutanosiblik bo'lmashligi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “*spill the beans*” iborasi o'zbek tilida “*sirni aytib qo'ymoq*” degan ma'noga ega bo'lsa-da, bu ifoda ko'chma ma'noda farqlilikni ko'rsatadi.

Kontrastiv lingvistikaning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lgan ekvivalentlik tarjima, til o'rgatish va ikki tilli lug'at tuzishda katta ahamiyat kasb etadi. J. Ketford ta'kidlaganidek, tarjima jarayonidagi asosiy qiyinchilik tarjima tilida mos ekvivalentni topish bilan bog'liq<sup>33</sup>. Ekvivalentlik darajasi til birliklarining semantik maydoni, qo'llanilish konteksti va lingvomadaniy yukiga qarab quyidagi turlarga ajraladi: 1) *to'liq ekvivalentlik* qiyoslanayotgan birliklarning muayyan sememasi doirasida denotativ mazmuni, asosiy semantik komponentlari va funksional qo'llanishi o'zaro mos kelgan holatda kuzatiladi. Bunda ekvivalentlik leksemaning barcha ma'nolariga emas, qiyoslash uchun tanlangan aniq sememasiga nisbatan belgilanadi. Masalan, o'zbek tilidagi *qush* leksemasining “patli, tuxum qo'yib ko'payadigan, odatda uchishga moslashgan jonivor” sememasi rus tilidagi *nmuyqa* hamda ingliz tilidagi *bird* birliklari bilan asosiy denotativ belgilariga ko'ra mos keladi. Shu sababli *qush* – *nmuyqa* va *qush* – *bird* juftliklari mazkur semema doirasida to'liq ekvivalent birliklar sifatida baholanishi mumkin.

2) *qisman ekvivalentlik*da birliklar o'rtasida to'liq ma'no mosligi bo'lmashligi mumkin, ular faqat muayyan kontekstdagina o'zaro mutanosiblikka ega. Masalan, o'zbekcha *dadasi* nutqiy ifodasi turli tillarda *ota*, *er* yoki *turmush o'rtoq* degan ma'nolarni ifodalashi kontekstga qarab farqlanadi. Inglizcha *culture* leksemasi o'zbek tilida “madaniyat” so'ziga yaqin bo'lsa-da, har doim ham konnotativ qatlamlari bir xil emas. Qisman ekvivalentlik turli xil munosabatlar orqali ifodalanishi mumkin bo'lib, ular orasida divergensiya (lotincha *divergens* – farqlanish) va konvergensiya (lotincha *convergo* – yaqinlashmoq, o'xshashmoq)

<sup>32</sup> Тубирбаева Г., Кеулимжаева Г. К. Сравнительный анализ русской и английской грамматики: важные аспекты и структурные различия // Намкор konferensiyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 522-525.

<sup>33</sup> Catford, J. C. A linguistic theory of translation: an essay in applied linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 1978. – P. 398-416.

hodisalari ajralib turadi. Divergensiyada *A* tildagi bitta soʻz *B* tilda bir nechta leksik birliklar bilan ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi *know* feʼliga ispan tilida ikkita turli leksik birliklar *conocer* va *saber* mos keladi. Konvergensiya esa divergensiyaning aksi boʻlib, *A* tildagi bir nechta soʻzlar *B* tilda yagona soʻz orqali ifodalanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi *ayol* va *xotin* soʻzlari, ingliz tilidagi *woman*, *wife*, *missis* soʻzlari nemis tilida yagona *Frau* leksikasi orqali ifodalanadi. Shu kabi rus tilidagi *коричневый*, *карий*, *каштановый*, *бурый* rang bildiruvchi soʻzlar ingliz tilida yagona *brown* soʻzi bilan ifodalanadi<sup>34</sup>. 3) *nol ekvivalentlik* baʼzan bir tilda mavjud boʻlgan birlik boshqa tilda umuman mavjud boʻlmashligi nazarda tutadi. Bunday holat *lakunar hodisa* deb ham yuritiladi. Masalan, nemischa *Fernweh* leksemasi uzoqdagi joylarga boʻlgan sogʻinch, bu holat oʻzbek tilida bir soʻz bilan emas, balki tavsifiy ibora orqali ifodalanadi yoxud oʻzbekcha *kelinsalom* tushunchasi koʻplab tillarda izohli yoki kontekstual tarzda ifodalanadi yoki oʻzbek madaniyatida qizlarga xos *ibo*, *hayo*, *andisha* madaniy konsepti rus yoki ingliz tilida konseptual lakunani hosil qiladi.

*Struktura darajasidagi tafovutlar* sintaksis va morfologiyada oʻz ifodasini topadi. Masalan, ingliz tilida qatʼiy SVO (subyekt–feʼl–obyekt) soʻz tartibi saqlansa, oʻzbek tilida SOV tartibi ustunlik qiladi<sup>35</sup>. Masalan, inglizcha: *She wrote a letter*; oʻzbekcha: *U xat yozdi*. Shuningdek, ingliz tilida jins kategoriyasi mavjud emas, ammo rus yoki fransuz tillarida jinsga qarab ot va sifatlardagi oʻzgarishlar kuzatiladi. Oʻzbek tilida esa jins grammatik jihatdan ifodalanmaydi<sup>36</sup>.

*Semantika darajasidagi tafovutlar* esa bir tilga xos boʻlgan maʼno qatlamining boshqa tilga toʻliq koʻchmasligi bilan bogʻliq. Masalan, oʻzbek tilidagi “*qismat*” soʻzi koʻproq diniy va taqdirga ishonish bilan bogʻliq semantik yuklamaga ega boʻlsa, ingliz tilidagi “*fate*” yoki “*destiny*” soʻzlari bu maʼnoni toʻliq qamrab olmaydi. Yana bir misol: ingliz tilidagi “*privacy*” tushunchasi oʻzbek tilida aynan bitta soʻz bilan ifodalanmaydi, balki “*shaxsiy hayotga aralashmaslik*” kabi ifodalar bilan taʼriflanadi.

Dissertatsiyaning “**Artefakt, mentefakt va naturfakt leksemalarning lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida milliy ong va milliy madaniyatni tilda aks ettiruvchi hamda har bir tilda mavjudiyati majburiy boʻlgan artefakt, mentefakt va naturfakt leksemalarda milliy lisoniy xususiyatlarning aks etish masalalari tadqiq etilgan. Hozirgi zamon oʻzbek til leksikasida: *naturfaktlar* – tilning “suyagi”, uning leksik sathidagi asosiy tayanch qatlam; *artefaktlar* – har bir davrning oʻziga xos hayoti, madaniyati, sanʼati va texnologiyasini aks ettiruvchi, eng tez oʻsuvchi qismi (boshqa tillardan tayyor artefakt soʻzlar ham shular jumlasidan, tilimizda 50 foizdan ortiq artefakt soʻzlar oʻzlashmalardir); *mentefaktlar* – milliy ruhiyat, axloq va falsafani ifodalovchi eng chuqur qatlam boʻlib, bu qatlam ham oʻzbek tilida oʻzlashgan qatlam hisobiga anchagina boyigan. O.F.Zadobrivskaya taʼkidlaganidek, “mentefaktlar – bu

<sup>34</sup> Zokirova S.M. Turli tizimli tillarda kongruentlik hodisasi. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Fargʻona, 2022. – B. 31.

<sup>35</sup> Расулова И.А. Лингвомаданий интерференция ҳамда уни бартараф этиш йўл-йўриқлари. Филология бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2022.– Б.72.

<sup>36</sup> Расулова И.А. Коʻrsatilgan asar.– Б.73.



xalqning mental xotirasi, ularning tilga bo‘lgan onglik asosidagi munosabati va ijtimoiy xulqini ifoda etuvchi vositalardir”<sup>37</sup>. Shu bilan birga, deyarli barcha milliy madaniyatlar artefakt va mentefaktlar orqali ifodalanuvchi ba’zi predmet va hodisalar ham mavjudki, ularni nomlovchi leksik birliklar o‘z semantikasida yuqori darajadagi denotativ umumiylikni ifodalaydi. Bunday birliklarga artefaktlar (*stul, arava, daftar, kitob* va b.) va, ayniqsa, naturfaktlar (*qo‘l, yuz, bosh, bulut, yomg‘ir, daryo, shamol*) kiradi. Ular dunyoning turli xalqlari tomonidan tanilgan va tasniflangan obyektlar bo‘lib, ko‘plab tillarda mavjudlik darajasi yuqori.

D.Xudoyberganova “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da madaniy artefaktga quyidagicha ta’rif bergan: “odamlar tomonidan yaratilgan va uni yaratuvchilar va foydalanuvchilarning madaniyati haqida ma’lumot beruvchi narsa; ma’lum fizik xususiyatlarga va ramziy ma’noga ega bo‘lgan har qanday sun’iy yaratilgan obyekt deb ta’rif bergan bo‘lsa, madaniy naturfaktlar foydalanuvchilarining madaniyati haqida ma’lumot beruvchi, ramziy ma’noga ega bo‘lgan har qanday tabiiy narsa”<sup>38</sup>.

Til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlar insonning olamni qabul qilishi va uni til orqali modellashtirish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, tabiat hodisalariga oid naturfaktlar orasida denotativ umumiylik eng ko‘p uchraydi: “*daryo*”, “*tog*”, “*yer*”, “*shamol*”, “*ertalab*”, “*kechqurun*”, “*vulqon*”, “*tun*” kabi birliklar aksariyat tillarda mavjud bo‘lib, tarjimada ular bilan bog‘liq muammolar kam uchraydi. Biroq ushbu birliklarning semantik milliyliigi hali yetarlicha o‘rganilmagan sohalaridan biridir. Denotativ umumiylik yuqori bo‘lgan hollarda ham, leksik birliklar semantik tarkibida madaniy-funksional tafovutlar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, *yomg‘ir* naturfakti barcha tillarda denotativ jihatdan yaqin bo‘lsa ham, konnotativ ma’nosi jihatidan farq qilishi mumkin, baraka, unumdorlik, serhosillik o‘zbek tiliga xos bo‘lsa, inglizlarda sukunat, namlik, odatiy kun kabi semalar farqlanishi mumkin.

Bobning “*Artefakt, mentefakt va naturfakt leksemalar semantikasida milliy o‘ziga xoslikning semalar darajasida namoyon bo‘lishi*” deb nomlangan birinchi paragrafida ushbu leksik qatlamlarning semantik tarkibidagi universal va milliy belgilar tahlil qilinadi. Artefakt, mentefakt va naturfaktlarni ifodalovchi leksemalarning integral hamda differensial semalari ajratilib, milliy o‘ziga xoslikning denotativ, konnotativ va funksional semalar orqali namoyon bo‘lishi yoritiladi.

“*Artefakt, mentefakt va naturfakt leksemalarning konnotativ xususiyatlaridagi milliy o‘ziga xoslik*” deb nomlangan ikkinchi paragrafda leksik birliklarning konnotativ ma’nolari milliy tafakkur va madaniyatning akssadosi sifatida tilning semantik tizimida muhim o‘rin egallashi va ularning milliy o‘ziga xosligi masalalari tahlil qilinadi. Konnotatsiya, odatda, so‘zning asosiy denotativ ma’nosiga qo‘shimcha tarzda bog‘langan emotsional, ekspressiv va stilistik qatlamlardan tashkil topadi. Ular orqali til nafaqat obyektiv haqiqatni ifodalaydi,

<sup>37</sup> Задобривская О.Ф. Ментефакты idea и thought как вместилище // World science: problems and innovations: сб. ст. XVII Междунар. науч.-практ. конф.: в 3 ч. Ч. 3. – Пенза: МЦНС «Наука и просвещение», 2018. – С.35.

<sup>38</sup>Xudoyberganova Durdona. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / D.Xudoyberganova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B. 50.

balki milliy-estetik qadriyatlar, xalqning dunyoqarashi va madaniy tajribasini ham yetkazadi. Konnotativ ma'noning turlaridan biri sifatida tilshunoslar so'z semantikasining madaniy komponentini ajratib ko'rsatadilar. V.N.Telia konnotatsiyaning semantik mohiyatini birinchi bo'lib ta'kidlagan tadqiqotchilardan biridir. U konnotatsiyaning ko'chma ma'nolarda faol ishlatilishini ham alohida e'tirof etadi<sup>39</sup>. N.G. Komlev esa konnotatsiyani so'z ma'nosining moddiy (formalashtirilgan) tarkibiy qismi sifatida ko'rmaydi. Uning fikriga ko'ra, konnotativ komponentlar inson ongida so'z-belgilarni qabul qilish jarayonida shakllanadi, ya'ni ular sub'yektiv idrok bilan bog'liq bo'lib, til tizimidan emas, balki nutqiy voqelikdan o'sib chiqadi<sup>40</sup>. Zamonaviy tadqiqotlarda madaniy konnotatsiya madaniyatning til belgisi orqali ifoda etiluvchi shakli – eksponenti sifatida qaraladi<sup>41</sup>. Bu turdagi konnotatsiya xalqning tarixiy xotirasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan semantik komponent sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy konnotatsiya – bu xalqning tarixiy va etnik xotirasining til tizimida, ya'ni uning eng dinamik va betakror sohasi – leksikasida aks etgan izidir. U o'ziga xos konseptlar, stereotiplar, me'yorlar, timsollar, freymmlar, mifologemalar va shu kabi milliy hamda umuminsoniy madaniyat belgilarida ifodalanishi mumkin. Bu belgilar til egasi bo'lgan xalq tomonidan o'zlashtirilgan tajribaning mahsulidir<sup>42</sup>. Konnotativ leksika – bu oddiy leksik ma'nodan tashqari turli xil emotsional-ekspressiv, metaforik va timsollashtirilgan qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lgan lingvomadaniy birlikdir. Masalan, o'zbek tilidagi *“oydek kelin”* birikmasi nafaqat tashqi go'zallikni, balki odob, hayo va tarbiyani ham bildiradi. Bu ibora o'zbek xalqining kelin obraziga bo'lgan ijtimoiy-madaniy yondashuvini ifodalaydi. Rus tilida esa unga mos keladigan *“невеста как картинка”* iborasi faqat tashqi chiroyga urg'u beradi, lekin unda ijtimoiy-axloqiy konnotatsiyalar sustroq ifodalangan.

Madaniy konnotatsiya til tizimida bir xilda, yagona shaklda namoyon bo'lmaydi. Uni til birligining mazmuniy tarkibidagi madaniy komponentga asoslanib o'rganar ekan, S.G. Vorkachyev konnotativ qiymatga ega bo'lgan so'zlarning leksik-semantik hodisalarini quyidagi qatlamlarga ajratadi<sup>43</sup>:

1. *Milliy-assotsiativ konnotatsiyalarga ega bo'lgan so'zlar* qatlamiga o'ziga xos milliy-assotsiativ ma'nolarni anglatuvchi, ya'ni ular faqat shu tilda so'zlovchi jamoa vakillariga xos obraz va tuyg'ularni uyg'otuvchi onimlar mansubdir. Masalan, rus tilidagi *береза, осина, рябина, калина, черемуха, вишня* kabi so'zlar nafaqat real obyektlarni bildiradi, balki rus xalqining madaniy ongida ular orqali ayol go'zalligi, muhabbat, noziklik, yoshlikdagi his-tuyg'ular bilan bog'liq obrazli-assotsiatsiyalar ham uyg'otadi. Bunday konnotatsiyalar rus xalq

<sup>39</sup> Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики (номинативных единиц). – М.: Наука, 1986. – С.5.

<sup>40</sup> Комлев Н. Г. Компоненты содержательной структуры слова. – М.: URSS, 2006. – С. 17.

<sup>41</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М., 2001; Бурукина О.А. Коннотация как культурная универсалия. // Философия. Язык. Культура. Вып. 2. – СПб.: Алетейя, 2011. – 325 с.

<sup>42</sup> Бавдинев Р.Р. Культурная коннотация и паремические единицы. // Вестник КазНУ, филологическая серия, №8, 2005. – С. 177.

<sup>43</sup> Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, становление: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Вопросы языкознания. 2000. №1. – С. 64-72.

qo'shiqlari, badiiy asarlarida an'anaviy tarzda saqlanib qolgan<sup>44</sup>. O'zbek xalqida esa *gul, chechak kabi go'zal, atirgul misoli nozik, rayhon misoli tarovatli, sarv qomat, sanobardek ravon...* kabi fitonim komponentli o'xshatishlar ayol go'zalligi, tik qomati, nozikligi bilan bog'liq obrazli-assotsiatsiyalarni uyg'otadi.

2. *Kengaytirilgan va ko'chma ma'nodagi so'zlar, boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan semantik farqlanishi mumkin bo'lgan birliklar* asosiy ma'noda boshqa tillardagi so'zlarga mos kelsa-da, ko'chma ma'noda ishlatilishida o'ziga xos milliy-assotsiativ yuk oladi. Masalan, rus tilida ona o'z qizalog'ini *ласточка* (qaldirg'och) deb atab erkalaydi. Bunda ruslar qaldirg'ochga nisbatan mehrli, iliq munosabat bildiradi – qaldirg'och ko'pincha bahorda deraza tagida in quradi va shodon ovozda sayraydi. O'zbek onalari esa o'gil bolasini *toychog'im* (otning bolasi), *bo'talog'im, qo'zichog'im* deb erkalaydi. Bu esa o'zbeklarning otga bo'lgan ijobiy munosabati bilan bog'liq.

3. *Metaforik ko'chma ma'nodagi so'zlar* qatlamiga ko'chma, obrazli ma'no kasb etgan birliklar kiradi. Masalan, "*ozg'in*" sifati har ikki tilda ham nafaqat tashqi ko'rinishni ifodalaydi, balki ko'pincha salbiy, ba'zan esa neytral yoki ijobiy ma'nolarni ifodalaydi. Biroq bu sema har bir tilning milliy-estetik tafakkuri, majoziy obrazlar tizimi va lingvokulturologik konnotatsiyasi asosida har xil o'xshatishlar bilan tavsiflanadi. *Худая как швабра* nutqiy ifodasi rus xalqi *ozg'in* odamni shvabra cho'piga o'xshatadi. O'zbek tilida bunga mos konnotatsiya sifatida cho'pdek *ozg'in, arvohtdek, novdadek, chillakdek, avra-astardek* *ozg'in* birikmasi ishlatiladi, ya'ni *ozg'in* odam cho'pga, arvohtga, novdaga, chillakka, avra-astarga qiyoslanadi. Bu o'xshatishlardan shuni ko'rish mumkinki, *ozg'in* sifati har ikki tilda turli predmetlar asosida ifodalanmoqda.

Uchinchi bobning "*Strukturaviy va lisoniy o'ziga xoslik*" deb nomlangan uchinchi paragrafida leksikani strukturaviy kontrastiv metod asosida tahlilga tortishda strukturaviy va lisoniy o'ziga xoslikning o'rnini tahlil etishga bag'ishlangan. Kontrastiv tahlilning asosiy jihatlaridan biri – bu o'rganilayotgan so'z birligiga taqqoslanayotgan tilda nechta leksik birlik mos kelishini aniqlashdir. Turli tillar o'rtasidagi leksik birliklarni taqqoslashda ularning tashqi shakli, ya'ni so'z yoki so'z birikmasi ko'rinishida ifodalanishi har doim ham ularning semantik tengligini belgilovchi asosiy mezon bo'la olmaydi. Ko'plab holatlarda bir tildagi bitta so'z boshqa tilda faqat barqaror so'z birikmasi orqali ifodalanadi, bu esa leksik-strukturaviy tafovutlarning mavjudligini ko'rsatadi. Biroq bu tafovutlar alohida birliklarning milliy xususiyatlari bilan emas, balki har bir til tizimining ichki qonuniyatlari va nomlashdagi umumiy milliy tendensiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, kontrastiv tahlilda formal-strukturaviy tafovutlar – masalan, o'zbek tilida "*kenja*" degan bitta so'zning rus tilida "*самый младший ребёнок в семье*" kabi birikma orqali ifodalanishi – ularning semantik ekvivalent bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi. Bu yerda asosiy mezon – ma'noning to'laligi va barqarorlik darajasidir.

<sup>44</sup> Давлетбаева Р. Г. Коннотативное значение в лексической системе (на примере русского и башкирского языков) // Вестник Башкирского университета. – 2015. – Т. 20. – №. 2. – С. 562-566.

Tilshunoslikda eng murakkab masalalardan biri – erkin va barqaror soʻz birikmalari oʻrtasidagi chegarani aniqlashdir. Bu chegara qatʼiy emas, balki har doim harakatda, oʻzgarishda boʻladi. Bu esa nafaqat tildagi dinamikani, balki uning hayotiy va kommunikativ tabiatini ham aks ettiradi. Barqaror va mustahkam strukturaga ega, nutqda muntazam qoʻllanadigan birikmalar leksik birlik sifatida qaraladi, masalan: “*nonushta qilmoq*”, “*tavakkal qilmoq*” (qoʻshma soʻz, tasviriy ifoda, ibora...) yoki, aksincha, erkin hosil qilinadigan birikmalar (masalan, “*yashil daftari*”) leksik birlik sifatida emas, sintaktik birlik sifatida talqin etiladi. Xullas, soʻz va soʻz birikmasi oʻrtasidagi strukturaviy farqlar semantik ekvivalentlik imkoniyatini inkor etmaydi. Aksincha, bunday tafovutlarni til tizimining rivojlanishiga xos tabiiy hodisa sifatida qabul qilib, ularni tahlilda nazardan chetda qoldirish, yaʼni “qavs tashqarisiga chiqarish” kerak boʻladi. Asosiy mezon – bu maʼnoning toʻliq mosligi va ifoda shaklining barqarorligidir. Kontrastiv tahlilda eʼtibor soʻzning struktur tuzilishiga nisbatan, uning leksik maʼnosining ichki tuzilmasiga qaratiladi.

Bobning “Leksik birliklarning ichki semantik tarkibi: sema turlari va ularning kontrastiv tahlili” deb nomlangan toʻrtinchi paragrafida leksik maʼnoning tarkibiy qismlari, semalarning turlari hamda ularning kontrastiv tahlilda qoʻllanish mezonlari yoritilgan. Unda integral va differensial, denotativ, konnotativ va funksional, yadro va periferik, doimiy va ehtimoliy semalar farqlanib, tanlangan kontrastiv juftliklarning semik muvofiqligi sifat va miqdor jihatidan tahlil qilingan.

L.Yelmslev tomonidan asos solingan maʼno strukturasi konsepsiyasi<sup>45</sup> va U.Gudenaf hamda F.Launsberi<sup>46</sup> tomonidan ishlab chiqilgan komponent tahlil tushunchasi, soʻz maʼnosini alohida maʼno komponentlaridan tashkil topgan maxsus tuzilma sifatida talqin qilish imkonini berdi. Aynan shu yondashuv oʻz davrida semasiologiyasining fan sifatida vujudga kelishiga olib kelgan edi. Sema – soʻz (predmet, hodisa, jarayon) denotativining farqlovchi belgisini aks ettiruvchi maʼno komponenti boʻlib, farqlovchi konnotativ (emotsional va baholovchi semalar) va til ichki belgilarini (struktur til semalari) ham aks ettirishi mumkin<sup>47</sup>. Kontrastiv leksik tavsiflash jarayonida taqqoslanayotgan tillardagi soʻzlarda ajratiladigan semantik komponent turlarida muhim farqlar mavjudligi tez-tez kuzatiladi. Shu sababli semaning tipologiyasini turli mezonlar asosida aniqlash zarur<sup>48</sup>, shuningdek, leksik maʼnoni eng kichik tarkibiy qismlarga – semalarga boʻlib tahlil etish orqali amalga oshiriladi. Koʻp maʼnoli soʻzlar esa oʻz ichiga murakkab semantik tizimni oladi. Bunday hollarda soʻzning har bir alohida maʼnosi yoki leksik-semantik varianti, xuddi bir maʼnoli soʻz kabi, semalarning mustaqil tizimi sifatida qaraladi. Kontrastiv leksik tavsiflash jarayonida taqqoslanayotgan tillardagi soʻzlarda ajratiladigan semantik komponent turlarida muhim farqlar mavjudligi tez-tez kuzatiladi. Shu sababli semalarning

<sup>45</sup> Ельмслев Л. Можно ли считать, что значения слов образуют структуру? // Новое в лингвистике. 1962. Вып. 2. – С. 131-137.

<sup>46</sup> Goodenough W. Componential Analysis and the Study of Meaning. – In: Language. Vol. 32. № 1. 1956.

<sup>47</sup> Контрастивная лексикология и лексикография: монография / под ред. И. А. Стернина и Т. А. Чубур. Воронеж, 2006. – С. 30.

<sup>48</sup> Матвеева Т. В. Полный словарь лингвистических терминов. – Ростов н/Д: Феникс, 2013. – С. 406.

tipologiyasini turli mezonlar asosida aniqlash zarur<sup>49</sup>. Kontrastiv tahlilda quyidagi semalarning farqlanishi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi: arxisemalar, differensial semalar, integral semalar, doimiy va ehtimoliy (veroyatli) semalar, yadro (markaziy) va periferik semalar, yorqin (faol) va kuchsiz (kam ifodalangan) semalar<sup>50</sup>.

Kontrastiv lingvistikada leksik birliklarni qiyosiy tahlil qilishda bu turdagi semalarning ajratilishi nafaqat semantik tafovutlarni aniqlashga, balki til o'qitish jarayonini, tarjima sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois semalarning tiplari, ularning yadro-periferik qatlamlari va barqarorlik darajasi har bir til tizimining milliy tafakkur modeli bilan bevosita bog'liq holda o'rganilishi kerak.

Dissertatsiyaning **“Kontrastiv tadqiqotlar natijalarini amaliy qo'llash masalasi”** nomli to'rtinchi bobda tadqiqot doirasida amalga oshirilgan kontrastiv tahlilga oid natijalarni amaliy qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan. Zero, kontrastiv tahlil asosida yaratilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarida o'quvchilarning ona tilidagi semantik va strukturaviy modellar bilan chet tilidagi birliklar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ko'rsatilsa, bu talabalar tarafidan mavzularni o'zlashtirish jarayonini ancha osonlashtiradi.

Bobning *“Kontrastiv tilshunoslik va lingvodidaktika”* deb nomlangan birinchi paragrafida kontrastiv tilshunoslikning lingvodidaktika bilan aloqasi masalalari tadqiq etiladi. Ma'lumki, kontrastiv tilshunoslik bevosita ta'lim jarayoni, xorijiy tillarni o'rganish, tarjima jarayoni bilan aloqador. Shu bois kontrastiv tilshunoslik lingvodidaktika bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Lingvodidaktikaning o'ziga xosligi shundaki, u til o'rgatishning umumiy nazariyasi bo'lib, bir vaqtning o'zida tilshunoslik hamda didaktika (ta'lim nazariyasi)ni o'zida mujassamlashtiradi. U xorijiy tillarni o'rganishning umumiy qonuniyatlarini, ta'limning turli bo'g'inlarida til o'rgatishning samarali metodlarini, shuningdek, o'rganilayotgan til va o'quvchining o'zaro ta'sirini tadqiq etadi hamda til o'rgatish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Lingvodidaktikaning asosiy vazifalaridan biri xorijiy tillarni o'rgatish konsepsiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. O'quv jarayonini takomillashtirish uchun til o'rgatishning mazmunini va metodikasini belgilaydi. Til o'rgatish metodlarini aniqlash maqsadida o'quvchilar tilni samarali o'rganishi, berilgan topshiriqlarni talab darajasida bajarishi, chet tilida erkin va to'g'ri so'zlashi, nutqiy savodxonligi oshishi uchun eng yaxshi usullarni tanlaydi.

Lingvistik tipologiya va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asosan nazariy asoslarda rivojlanayotgan bo'lsa, kontrastiv tilshunoslik ham o'zining xulosalarini, nazariy va uslubiy jihatdan, asosan, lingvodidaktik maqsadlarga bo'ysundiradi. Binobarin, til o'qitish nazariyasi va amaliyoti tutashgan nuqtada bu til o'qitish jarayoni bo'lib, bunda o'qituvchi uchun muhim savol shuki, kontrastiv tilshunoslik yutuqlarini qanday qilib o'quv jarayoniga samarali tatbiq etish mumkin; qiyosiy tilshunoslik yutuqlari lingvodidaktik vazifalarni hal etishda qay darajada samarali bo'lishi

<sup>49</sup> Матвеева Т. Ко'rsatilgan asar. – С. 406.

<sup>50</sup> Стернин И.А. Лексическое значение *слова* в речи. – Воронеж, 1985. – С. 45, 54, 73.

mumkin va ularni xorijiy til o'rgatish jarayonida qanday qilib to'g'ri va samarali qo'llash mumkin; kontrastiv lingvistikaning nazariy qarashlari bilan madaniyatlararo muloqot amaliyoti o'rtasidagi bog'liqlik nimada namoyon bo'ladi; taqqoslash metodidan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin va u yangi tilni egallashda yuzaga keladigan amaliy muammolarni hal etishda qanday foyda keltiradi? Bu savollar kontrastiv tilshunoslikni nafaqat nazariy, balki chuqur amaliy ahamiyatga ega soha sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Til o'rganishda kontrastiv yondashuv orqali o'quvchining tilda yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarining oldi olinadi, til o'zlashtirishga motivatsiya kuchayadi va madaniyatlararo tafakkur shakllanishiga zamin yaratiladi.

V.M.Mokiyenkoning fikriga ko'ra, til o'rganishning boshlang'ich bosqichida taqqoslashning semasiologik yo'nalishi, ya'ni shakldan ma'noga qarab tahlil qilish samaraliroq hisoblanadi, chunki bu yondashuv o'rganilayotgan tilning o'ziga xosliklarini va u orqali ifodalanuvchi funksional imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi. Yuqori bosqichda esa, aksincha, ma'nodan shaklga qarab yo'naltirilgan taqqoslash, ya'ni onomasiologik yo'nalish ko'proq samara beradi<sup>51</sup>. Biroq, til o'zlashtirishning yuqori bosqichlarida (bu yerda kattalar nazarda tutilmayapti, balki til o'rganish ko'nikmalari B1, B2 darajasidagi barcha yoshdagi kishilar) doimiy ravishda ona tiliga murojaat qilish yangi tilda erkin fikrlashga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois bu bosqichda asta-sekin ko'proq o'rganilayotgan tilga o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichda ham kerakli o'rinlarda kontrast tahlillar o'tkazib turilishi maqsadga muvofiq, ayniqsa, leksemalarning konnotativ ma'nolarini izohlashda bu bosqichda ehtiyoj seziladi. Shuningdek, kontrastiv tilshunoslik har doim ham o'quvchilarning barcha xatolarini bashorat qilish imkonini bermaydi. Chunki ayrim xatolar ikkinchi tilning o'zida mavjud murakkabliklar, ortiqcha umumlashtirishlar yoki psixofiziologik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, kontrastiv yondashuvning sistemaviyligi o'quvchilarning qiyinchiliklarini chuqurroq tahlil qilish, darsliklarni aniq rejalashtirish va o'rgatish jarayonida metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi<sup>52</sup>.

Mazkur bobning *“Kontrastiv tilshunoslik va o'quv leksikografiyasi”* nomli paragrafidan kontrastiv tilshunoslik yutuqlaridan o'quv lug'atchiligini yaxshilashda foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Kontrastiv leksikologik tadqiqotlarning amaliy natijasi sifatida turli tipdagi kontrastiv lug'atlarni tuzish muhim vazifa sanaladi. Chunki til o'rganishda eng katta qiyinchiliklardan biri – so'zlarning formal o'xshashligiga qaramasdan, ularning ma'noviy tafovutlarini anglashdir. Aynan shunday hollarda kontrastiv lug'atlar o'quvchiga amaliy yordam beradi, chunki bunday lug'atlar ularning ko'z o'ngida har ikki tildagi birliklarning o'ziga xosliklarini ochib beradi va o'quvchilar nutqi hamda til o'zlashtirishidagi interferensiya hodisasi va jarayonlarini kamaytiradi.

<sup>51</sup> Мокиенко В.М. Сопоставление в теории и практике преподавания русского языка как иностранного / Рус. яз. за рубежом. – 1987. – №5. – С.58.

<sup>52</sup> Иванцова Н. А., Лазицкая Е. Д. Особенности контрастивной лингвистики и ее практическое применение в обучении иностранным языкам //iPolytechJournal. – 2013. – №. 6 (77). – С. 257-260.

Kontrastiv tilshunoslik va o'quv lug'atshunosligi o'zaro chambarchas bog'liq: kontrastiv tilshunoslik tillar orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlaydi, bu tadqiqotlar natijalari esa ikki tilli o'quv lug'atlarini tuzishga asos bo'ladi. O'quv lug'atshunosligi so'zlar semantikasining milliy xususiyatlarini aniqlash uchun kontrastiv tahlildan foydalanadi va bu farqlarni lug'atlarda qayd etadi. Bu esa o'quvchilarga chet tilini o'rganishda va ona tili xususiyatlarini ko'chirish bilan bog'liq xatolardan qochishda yordam beradi. O'z navbatida o'quv leksikografiyasining maqsadi til ta'limi jarayoniga mo'ljallangan lug'atlarni tuzish va ularni takomillashtirib borishdan iborat.

“Kontrastiv semalar lug'atini tuzish” deb nomlangan uchinchi paragrafda kontrastiv semalar lug'atini tuzish zarurati xususida mulohaza yuritilgan. Kontrastiv semalar lug'atini tuzish uchun tadqiqotchidan katta mehnat talab qilishi ma'lum, ammo ushbu so'zlik qaysi tamoyillar asosida tuziladi? Bu xildagi lug'atlarni tuzish uchun tadqiqotchi, avvalambor, har bir leksemani ikki tilda mukammal taqqoslashi va ulardagi mavjud farqlarga alohida e'tibor qaratishi lozim. Binobarin, tadqiqotchi har bir sememaning milliy o'ziga xosligiga e'tibor qaratishi, ularni ikki tilda bir xilda izohlashi lozim, chunki aynan shu farqlar til o'rganish jarayonida katta to'siq sifatida qaraladi. Bunda o'xshashliklar e'tiborga olinmasligi kerak ekan, degan fikrdan qat'iyon xoli bo'lish lozim, zotan o'xshashliklarni aniqlamay turib, farqlarni ham topib bo'lmaydi. Ushbu bo'limda kontrastiv semalar lug'atini tuzish bo'yicha dissertant tomonidan ushbu olti bosqichli leksikografik jarayon taklif qilingan.

## 1-jadval

### Kontrastiv semalar lug'atini tuzish bosqichlari

| No | Bosqichlar  | Vazifalar                                                                            |
|----|-------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| 1  | I bosqich   | Asosiy tilda (bizning holda o'zbek tilida) leksik guruhni ajratish                   |
| 2  | II bosqich  | Ayrim birliklarning tarjima muqobillarini aniqlash                                   |
